

## AVESTODA MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARNING AHAMIYATI

**Ibragimova Bibiraba Tayirovna**

Ózbekston Respublikasi IIV  
Qoraqalpoq adademik litsey  
o'qituvchisi

**Rezyume:** Maqolada jahon tsivilizatsiya va umumbashariy ma'naviyat taraqqiyotiga beqiyos katta ta'sir ko'rsatgan Avestoda ma'naviy-axloqiy qarashlarning ahamiyati xaqida so'z boradi.

**Tayanch so'zlar:** avesto, axloq, din, ma'naviyat.

**Резюме:** The article describes the importance of spiritual and moral views in the Avesta, which had an immeasurably great impact on the development of world civilization

**Ключевые слова:** авесто, мораль, религия, духовность.

**Summary:** The article tells about folklore works preserved in the oral folk art of the Karakalpaks, including historical songs.

**Keywords:** avesto, morality, religion, spirituality.

Mamlakatimizda mustaqillik sharofati tufayli ajdodlarimizning qadim madaniy merosini ma'naviy qadriyatlarini tadqiq va targ'ib qilishga keng imkoniyat tug'ildi. Shunday qadriyat namunalaridan biri "Avesto" dir. U nafaqat diniy, balki noyob tarixiy, ta'limiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. Oxirgi yillarda buyuk donishmandlik majmuasi bo'lmish bu asarni o'rganishga qiziqish ayniqsa kuchaydi.

Avesto zardushtiylikning asosiy manbasi va muqaddas kitobi hisoblanadi. U Apastak, Ovisto, Ovusto, Avesto, Avasto kabi shakllarda ham ishlatib kelingan. Avesto O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim va yagona manbadir. Uning tarkibidagi materiallar qariyb ikki ming yil davomida vujudga kelib, avloddan-avlodga og'zaki tarzda uzatilib kelingan. Zardushtiylik dini rasmiy tus olguniga qadar Avestoning bo'laklari Turon va Eron zamini xalqlari orasida tarqalgan. Ushbu – Axura-Mazdaning Zardusht orqali yuborilgan ilohiy xabarlarini deb hisoblangan bo'laklar turli diniy duolar, madhiyalar sifatida yig'ila boshlangan. Darhaqiqat, "Avesto" hikmat va saboqlar xazinasidir. Bu asar jahon tsivilizatsiya va umumbashariy ma'naviyat taraqqiyotiga beqiyos katta ta'sir ko'rsatdi, insonning har jihatdan barkamol va ozod bo'lishini madh etdi. Miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalaridan I ming yillik boshlarigacha o'lkamizda yuzaga kelgan «Avesto» ko'p qirrali asar bo'lib, u ilk davlatchilik munosabatlari, ijtimoiy axloqiy qarashlarning ibtidosi va takomili haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Demokratik huquqiy jamiyatni qaror toptirish jarayoni davom etayotgan bugungi sharoitda yangicha ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish madaniy meros, jumladan «Avesto» saboqlaridan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Zero, jamiyat a'zolari, xususan, yoshlarning har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishlarida ajdodlar an'anasi va o'tmish qadriyatlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida qayd qilinganidek, “milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotgani, boy milliy, madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat yoshlar tarbiyasidagi muhim omil sanaladi”.

Yaxshilik – inson hayotining mazmuni. Inson fe'l-atvorini, dunyoqarashini belgilaydigan me'zon va qarashlar –yaxshilik, ezgulik, mehr-oqibat, or-nomus, uyat-andisha kabi tushunchalar borki, ularning poydevori oilada shakllanadi va qaror topadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asarida «Bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi»,- deb takidlagan edilar. Avesto”da bayon etilgan Yaxshilik ruhi-buyaratuvchilik, bunyodkorlik kuchi, yomonlik ruhi esa buzish va buzg'unchilikka olib keladi. Yaxshilik hayot ramzi, yerni odamlar foydali hayvonlar va o'simliklar bilan to'ldirish, insoniyat umrini sog'liq, kuch-qudrat, baxtvashodlik, umid va ishonch, go'zallik va ezgu fikrat, to'kin-sochinlik bilan munavvar etmakdir. Yomonlik esa buning aksi, teskarisidir. Muqaddas manbada yaxshilik, bunyodkorlik, ezgulik ulug'lanayapti, inson yaxshilik qilmog'i uchun, yerni sevishi, uni ardoqlashi zarurligi, shuningdek, faol va haqgo'y bo'lmog'i zarurligiga e'tibor qaratilgan. Shundagina insonning faolligi va o'zishini bilishi tufayli yaxshilik dunyosi ko'payib, inson o'z qalbidagi zulmat va zolimlikdan forig' bo'ladi. “Avesto”ning Gohlar qismida Ezgulik ilohi Ahura Mazda shunday deydi: “O'zgalarni yaxshilikka olib borgan kimsalargagina yaxshilik nasib etadi”... Haqiqat nurlari ostida, Ezgu Niyatdan yaralgan ma'rifatingdan bizlarga hadya qil, toki tirikligimizning har lahza, har soat, har bir kunida shodmonlikdan bahramand bo'laylik.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.//Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. –Toshkent, 2000.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1997.